

Bolalar Muqaddas Kitobi
Tasvirlab beradi



Iso uchun
Mudhish
Vaqt



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
Byron Unger; Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
M. Maillot; Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan:
Bible for Children www.M1914.org

©2017 Bible for Children, Inc.
Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Iso suvga
cho'nganda,
Xudo shunday
degandi, "Bu
Mening Sevimli
O'g'limdir,
Undan
Mamnunman."




Xudoning
Muqaddas
Ruhi Isoning
ustiga kabutar
qiyofasida
tushgandi.



Shundan so'ng, Xudoning
Muqaddas Ruhi Isoni
cho'l tomon olib
bordi. Iso u erda
yolg'iz edi.



Iso qirq kun ro'za tutdi.
Ya'ni, Iso umuman ovqat
yemadi. U nihoyatda
och edi.



Muqaddas Kitobda aytilishicha
yovoyi hayvonlar ham
o'sha erda bor edi.



Shayton Isoni
vasvasaga solish
uchun keldi.



Uzoq vaqt oldin, Adan
bog'ida o'sha Shayton
Odam Ato va
Momo Havoni
vasvasaga
solgandi va
ular ...



... Xudoga
bo'ysinishmagandi.
Endi ular kabi Iso ham
sinovdan
o'tishi
kerak.



Shayton
Xudoning O'g'li
Isoni ham
vasvasaga
solishga



harakat
qiladi.



"Agar Sen Xudoning
O'g'li bo'lsang," deydi
Shayton, "bu toshlarni
nonga aylantir." Isoning
ochligini u bilardi.



Xudoning O'g'li toshni
nonga aylantira olishini u
bilardi. Iso Shaytonning
gapiga kirarmikan?



Yo'q! Iso Shaytonning gapiga
kirmadi. Aksincha, Iso unga
Xudoning Kalomi orqali
javob berdi.



"Inson faqat non bilan yashamas,
balki Xudoning og'zidan chiqadigan
har bir so'z bilan
yashaydi."



Shundan so'ng, Shayton Isoni buyuk
Quddus shahridagi odamlar Xudoga
topinadigan muqaddas ma'badga olib
bordi.



Endi Shayton nima qilar ekan?



"Agar Sen Xudoning O'g'li bo'lsang,
pastga sakra" dedi Shayton. "Xudo
Kalomida Uning farishtalari Seni
qutqaradi deyilgan
axir."



"Yo'q!" dedi Iso. "Yana yozilganki ...
'Xudoni imtihon qilma.'"







Shayton yana bir bor harakat qilib ko'rdi. U Isoni shahardan tashqariga, baland tog' cho'qqisiga olib bordi.



Isoga erdagi har bir
shohliklar ulug'vorligini
ko'rsatib, Shayton
shunday dedi, ...



... "Agar Sen tiz
cho'kib menga sajda
qilsang, bularning
hammasini Senga
beraman."




"Yo'qol mendan, Shayton!" buyurdi Iso. "Yozilganki ... 'Faqat Xudoga sajda qil va faqatgina Unga xizmat qil.'"



Shunda Shayton
Isoni tark etdi.
Keyin ajoyib
hodisa ro'y
berdi.



Xudo
Shaytonga quloq
solmagan O'g'li
Isoga taskin
berish uchun
farishtalarni
yubordi.



Iso uchun Mudhish Vaqt

Hikoya Xudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 4-bob, Luqo 4-bob

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,
men Senga itoat qilishim uchun va Sening
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

